



O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va
nuroniylarni qo'llab-quvvatlashga oid
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
ayrim hujjatlari mazmun-mohiyati

2022-yil 1-mart

“Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi

OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO‘MITASI hamda uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi

Qo‘mita oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha **VAKOLATLI DAVLAT BOSHQARUVI ORGANI** hisoblanadi

Oila va xotin-qizlar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Qo‘mita bilan **MAJBURIY TARTIBDA** kelishiladi



Farmon bilan quyidagi lavozimlar kiritildi

Vazirlar Mahkamasiga – Bosh vazir o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga – Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

viloyat hokimliklariga – hokim o‘rinbosarlari – oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari

tuman (shahar) hokimliklariga – hokim o‘rinbosarlari – oila va xotin-qizlar bo‘limlari boshliqlari lavozimlari

Quyidagi lavozimlar tugatildi:

mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri

mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari boshliqlari

mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari boshliqlari lavozimlari

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari negizida tegishincha Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi

Vazirlik nuroniy va keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, mahallalar bilan hamkorlik o'rnatish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi

Mahalla, nuroniy va keksalar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Vazirlik bilan majburiy tartibda kelishiladi

Mahalla raisiga qo'shimcha huquqlar berildi

Mahalla raisi, jumladan, tuman (shahar) hokimi yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarini rag'batlantirish yoki ularga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralarini qo'llash bo'yicha mazkur xodimlarning **yuqori turuvchi tashkilotlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritishi mumkin**





2022-yil 1-iyulgacha

“Mahalla to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi

FARMON BILAN

Aholi muammolarini o‘rganish, tahlil qilish va hal etish hamda murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko‘rib chiqishning bir-biri bilan uzviy bog‘langan to‘rt pog‘onali **“mahalla–tuman–viloyat–respublika”** tizimi joriy etildi

2022-yil 2-mart



“Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi

Qaror bilan tashkil etildi

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi

mahalliy Kengashlarda Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar

Bosh prokuraturada Xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash hamda ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etildi

Bosh prokuratura xotin-qizlar huquqlarini hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazorat o‘rnatadi

**OILA VA XOTIN-QIZLAR
DAVLAT QO‘MITASI VA
UNING HUDUDIY
BO‘LINMALARI QUYIDAGI
HUQUQLARGA EGA**

vazifalarni amalga oshirish uchun, davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning rahbarlari hamda mutaxassislarini jalb qilish, ishchi guruhlar tuzish

statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish

xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda oilani mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi yuzasidan majburiy taqdimnomalar kiritish

xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko‘zlab sudlarga ariza (shikoyat) va da’volarni kiritish

xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda oilani mustahkamlashga doir tashabbuslar bilan chiqish hamda takliflar kiritish




**2022-YIL 1-MAYDAN MAHALLADAGI XOTIN-QIZLAR FAOLINING OYLIK ISH HAQI MIQDORI
U BIRIKTIRILGAN MAHALLADAGI XONADONLAR SONIGA MUTANOSIB RAVISHDA QUYIDAGICHA BELGILANADI**

XONADONLAR SONI 500 TAGACHA
BO'LGAN MAHALLADA

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,5 baravari miqdorida


2 mln 877 ming so'm



XONADONLAR SONI 501 TADAN
1 000 TAGACHA BO'LGAN
MAHALLADA

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4 baravari miqdorida

3 mln 288 ming so'm



XONADONLAR SONI 1 000 TADAN
ORTIQ BO'LGAN MAHALLADA

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,5 baravari miqdorida

3 mln 699 ming so'm

Эътиборингиз учун раҳмат!

